

Mastercard premial kartalari sohiblari uchun

“Turkiyada keshbek 2025” aksiyasi qoidalari

1. Aksiyada qatnashuvchi kartalar:

Aksiya O'zbekiston, Qozog'iston, Belarus, Gruzija, Armaniston banklari tomonidan chiqarilgan World Mastercard Black Edition va Mastercard World Elite kartalarini qamrab oladi.

2. Aksiya davri:

Aksiya, karta hisobidan mablag' yechib olinishi vaqtidan qat'i nazar, qatnashuvchi kartalar sohiblari 2025-yil 1-iyuldan 2025-yil 31-avgustgacha (muddat uzaytirilishi mumkin) amalga oshirgan amaliyotlarga tatbiq etiladi.

3. Aksiya o'tkazilishi mexanizmi:

Mastercard premial kartasi sohibi Turkiya hududidagi aksiyada qatnashadigan mazkur toifalardagi savdo nuqtalarida bitta chekdagi quyida ko'rsatilgandan kam bo'lmagan summada karta orqali to'lovda keshbekka ega bo'ladi:

- Restoran va kafelar: 100 AQSh dollari yoki istalgan valyutadagi ekvivalentidan boshlanadigan xaridda 10 AQSh dollari miqdorida keshbek.
- Bojsiz savdo do'konlari (Duty Free): 150 AQSh dollari yoki istalgan valyutadagi ekvivalentidan boshlanadigan xaridda 15 AQSh dollari miqdorida keshbek.

4. Keshbek summasi:

Keshbek, xarid summasidan qat'i nazar, xarid summasi 3-b.da tegishli savdo nuqtalar toifasi uchun ko'rsatilgandan kam bo'lmashligi sharti bilan, restoran va kafelarda 10 dollar va bojsiz savdo do'konlarida 15 AQSh dollarini tashkil etadi. Aksiya amal qilishi davrida bitta karta uchun ko'rsatilgan ikkita savdo nuqtasidan har biri uchun aksiya bir marta amal qiladi.

5. Keshbek to'lash:

Keshbek xarid amalga oshirilgan karta hisobiga, Mastercard va kartani chiqargan bankning to'lov kunidagi kursi bo'yicha karta valyutasida o'tkaziladi. Mijoz kartasiga keshbek xarid amalga oshirilgan sanadan keyin 3-15 kalendar kun davomida o'tkaziladi.

6. Aksiyada qatnashuvchi savdo nuqtalari:

Aksiyada quyidagi toifa kodlari (MCC)ga ega savdo nuqtalari qatnashadi:

- Restoranlar va kafelar: 5811 – Keytering xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlar, 5812 – Umumiy ovqatlanish muassasalari; 5813 – Barlar, diskotekalar, tungi klublar va boshqa ichish muassasalari; 5814 – Tez ovqatlanish restoranlari.

- Bojsiz savdo do'konlari: 5309 – Duty Free do'konlari.